

## YOSH AVLODNING MUSIQIY ESTETIKASINI OSHIRISH XUSUSIDA

**Obidova Sarvinoz Po'latovna**

Chirchiq davlat pedagogika instituti

### ANNOTATSIYA

Maqolada musiqa bu insonning estetik didini tarbiya qilishdagi muhim vosita ekanligi nazarda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** Musiqa san'ati, musiqa terapiyasi, ommaviy madaniyatning avj olishi, chostata, musiqiy janr.

Yurtimiz aholisining 30-40 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lif olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi. Bunday immunitetni hosil qilishda san'atning o'ziga xos o'ringa ega. San'atlar ichida musiqa san'atining oldingi bosqichda turishi, bu uning insonga ta'sir doirasining kengligidan dalolat. Asl musiqaning kuchi - bu qalbga go'zallik va nafosat tuyg'ularini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Musiqa – bu nafaqat biz miriqib eshitadigan hodisa bo'libgina qolmay, og'riqni yengillashtiradigan, stressni oladigan, o'zingizni tushunishga yordam beradigan va muloqotdagi to'siqlarni bartaraf etadigan omil hamdir. Go'zal musiqa ruh ozig'i, tibbiyotda "*"musiqaterapiya"*" degan alohida yo'naliш bo'lib, uni psixoterapiya sifatida, shuningdek og'ir betob bo'lgan bemorlarga yordam uchun ham qo'llashadi. Masalan, bir tadqiqotda kasalxonadagi saraton bilan kasallangan bemorllarga musiqaviy terapiya ta'siri o'r ganilgan. Ular improvizatsiyalashgan musiqiy tomoshalarda qatnashishgan – guruh bo'lib to'planishib turli musiqaviy cholg'ularda chalishgan. Eksperiment natijalariga ko'ra, terapiyadagi qatnashchilarga bu ko'plab psixologik bonuslar bergenini tan olishgan: ular o'rtoqlarini qo'llashganini his etishgan, xursandchilik va o'ziga ishonch, shuningdek yengillikni his qilishgan hamda stresdan xolos bo'lishgan. Musiqaterapiyani yana bir qiziqarli metodi – bu ashulalar yozish. Bu metodni ayrim psixoterapevtlar ishtirokchilar bilan ishslashda qo'llashadi. Agar inson o'z hissiyotlarni so'z bilan izohlay olmasa unga musiqa yordamga keladi.

Musiqaning jamiyatdagi o'rni ham aslida juda muhim ahamiyat kasb etgan. Insonning qanaqa musiqa eshitishi, uning yoshiga ham juda bog'liq. Chunki odam ulg'aygani sari uning ongi ham kamol topib boradi. Kichkina jajji bolajonlar uchun asosan yuqori registrdagi hajmi kichik, asosan qo'ng'iroqcha intonatsiyasiga ega musiqalar tinglash ular uchun zzavqliBola 10 yoshlarida ham hali murakkab asarlar

tinglay olmaydi, unga kelajakka umid beruvchi yorqin, o‘ynoqi, sho‘x kuy qo‘shiqlarni tinglatgan ma’qul. Voyaga yetgan inson endi ancha salmoqli, yirik hajmli musiqalarni tinglay oladi. Bu uning uchun og‘irlik qilmaydi. Sababi endi unda bu ko‘pgina narsalarga aqli yetgan palla bo‘ladi. Ya’ni inson voyaga yetgach shaxs sifatida shakllanadi. Yoshi bir joyga borgan inson uchun jadal sur’atli, shiddatli, keskin xarakterdagi musiqalar og‘irlik qiladi, bu pallada unga sokin, lirk asosan pastgi registrlardagi, chastotasi pastroq bo‘lgan musiqalar ayni muddao bo‘ladi.

Insonning qanday musiqani tinglashi - uning harakteriga ham, yurish turishi-yu gapirish uslubiga ham ta’sir etadi. “Shakarning ham ozi shirin” qabilidagi so‘zni har bir sohaning meyor doirasidan ortib borayotganida ishlatish o‘rinlidir. Ommaviy madaniyat avj olayotgan bugungi kunda musiqa san’atining inqiroziga ham ko‘zimiz tushadi. Bejirim jiloli musiqalar o‘rnini ancha sayoz, musiqiy tovushlarga ega bolmagan, shovqinli tovushlarga boy yengil yelpi “tovushlar jamlanmasi” glaballashmoqda. Bunday musiqalar insonni na go‘zallikka, na estetikaga o‘rgata oladi. Kuchli chastataga ega bunday musiqalar aks ta’sir qilib qorong‘ulik, yolg‘izlik, odamlardan uzoqlashish, o‘zini ojiz his qilish kabi egaistik tuyg‘ularni uyg‘otadi. Chunki hayotning hali past balandini, ko‘rib ulgurmagan, fikri tiniqlashmagan yosh avlod uchun bunday kuchli ekstezga ega musiqiy tovushlar salbiy ta’sir qilishi mumkin. XX asr musiqasida ayniqsa yoshlar orasida bunday kuchli chastotali musiqalarning alohida janrlar tarkibi ham shakllangan. U asosan elektron tovushlardan iborat. Ularni eshtganda odam bevosita xuddiki giyohvand modda iste’mol qilgan odam kabi o‘zini yo‘qotib jazava holatiga olib keladi. Shu turishda u hamma narsani unutadi. Uning uchun hech narsa bugungidek zavqli bo‘lolmaydi. Bu esa yengil yelpi hayot deganidir. Yurtimiz yoshlarini bunday illatlardan qutqarish maqsadida asl musiqaning targ‘iboti qilish, ommaviy konsert dasturlarini o‘tkazish, yosh xonanda va sozandalar o‘rtasida bellashuvlar o‘tkazib g‘oliblarni taqdirlash, undan tashqari har bir viloyat tumanlarda bolalar musiqa va san’at muktablarining qurilishlari va bunday muktablarga yetarlicha kadrlarni yetkazib berish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

Xalqimiz azaldan musiqani sevib, unga oshno bo‘lib kelgan. Uning hech bir faoliyati yo‘qki unga musiqa ishtirot etmagan bo‘lsa. Mehnat faoliyati bo‘ladimi, to‘y tomosha marosimlari bo‘ladi, maishiy turmush tarzi bo‘ladimi barida musiqa ishtirot etgan. Bugungi kunda musiqiy hayotimizda yuqoridagi kabi yengil yelpi musiqa namunalari borligiga qaramasdan, musiqa bilan shug‘ullanuvchilar, unga qiziquvchilar soni kundan kunga ortib borayotgani anchayin quvonarli hodisa. Shu o‘rinda aytishim joizki san’atlar ichida musiqa san’ati insonning ichki dunyosini aniqroq va dildagini yetkaza olmagan his-tuyg‘ularni musiqa bejirim qilib ifodalab bera oladi. Chunki so‘z to‘xtagan joyda musiqa davom etadi!

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

Are Brean/Музыка и мозг/Альянсер Поблишер/2020-yil

Л.С. Денисюк/Методы музыкального воспитания как неотъемлемая часть умений студента, реализуемых в процессе педагогической практики/maqola/2020-yil

Яфальян А.Ф./Учебное пособие для студентов педагогических вузов/Теория и методика музыкального воспитания в начальной школе// Современные научноемкие технологии. – 2009.